

UDK:625.08

**TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA TA'MIRLASH ISHCHILARINI  
KOMPETENSIYAVIY YONDOSHUV ASOSIDA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH METODIKASI**

**МЕТОДИКА ПОДГОТОВКИ И ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ  
РАБОТНИКОВ ТЕХНИЧЕСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ И РЕМОНТА  
НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОГО ПОДХОДА**

**METHODOLOGY OF TRAINING AND IMPROVING THE SKILLS OF  
TECHNICAL SERVICE AND REPAIR WORKERS ON THE BASE OF A  
COMPETENT APPROACH**

Soliyev Rustamjon Xakimjanovich

Transport vositalari muhandisligi kafedrasi professori,  
texnika fanlari doktori

Mannonov Jahongir Adashboyevich

Transport vositalari muhandisligi kafedrasi dotsenti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Valiyeva Gulshan Fayzimuradovna  
Transport vositalari muhandisligi kafedrasi dotsenti,  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada avtotransport korxonalarini ish jarayonlarini samarali tashkil etishda bilimli, malakali va kompetentlik layoqati shakllangan nozimlik, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'limi ishchilariga bog'liqligi va ushbu ishchi xizmatchilarni kompetensiyaviy yondoshuv asosida tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish metodikasi, uning samarali natijalari keltirib o'tilgan. Bundan tashqari avtotransport korxonalarida texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'limi ishchilarga qo'yilgan asosiy talablar, kompetensiyaviy yondoshuv asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, tayyorlash va malakasini oshirishning samaradorlik ko'rsatgichlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetentlik layoqati, kompetensiya, ta'mirlash (T), samaradorlik, avtotransport korxonalari, texnik xizmat ko'rsatish (TXK), kompetensiyaviy yondoshuv, kasbiy kompetensiya, tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, samarali tashkil etish.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье эффективная организация рабочих процессов автотранспортных предприятий зависит от знающих, грамотных и грамотных

работников службы технического обслуживания, ремонта и эксплуатации, а также методики подготовки, переподготовки и повышения квалификации этих работников на основе компетентностного подхода. Приводятся ее эффективные результаты. Кроме того, представлены основные требования к работникам службы технического обслуживания и ремонта автотранспортных предприятий, показатели эффективности формирования, подготовки и совершенствования профессиональных компетенций на основе компетентностного подхода.

**Ключевые слова:** компетентность, компетентность, ремонт (Т), эффективность, автотранспортные предприятия, техническое обслуживание (ТСК), компетентностный подход, профессиональная компетентность, подготовка, переподготовка, модернизация, эффективная организация.

## ABSTRACT

This article describes the dependence of knowledge, skills and competence of employees of the department of maintenance, repair and repair on the effective organization of work processes of transport enterprises and the methods of training, retraining and advanced training of these employees on the basis of a competency approach. Its effective results are given. In addition, the main requirements for employees of the department of maintenance and repair of motor transport enterprises, indicators of the effectiveness of the formation, training and retraining of professional competencies on the basis of a competency approach.

**Keywords:** Competence, competence, repair, efficiency, trucking companies, maintenance, competence-based approach, professional competence, training, retraining, advanced training, effective organization.

**Kirish.** Bugungi kunda avtomobil transporti xizmatlaridan foydalanish hayotimizning barcha sohalarida keng ko‘lamda va ommaviy ravishda qo‘llanilmoqda. Avtomobillardan foydalanish uning turlari bo‘yicha yuk va yo‘lovchi tashishda, maxsus ishlarni bajarishda mehnat unumdarligini, kam vaqt sarfini va iqtisodiy samaradorlikni oshirishi bilan ajralib turadi. Barcha transport turlari bo‘yicha hozirda avtomobil transporti xizmatlarida foydalanish ortib bormoqda, avtovtransport xizmatlaridan foydalanishda umumiyoq ko‘rsatgichlar bo‘yicha yo‘lovchilarning 80%, yuklarning 75% miqdorlari ushbu transport turi hissasiga to‘g‘ri keladi.

Avtomobillarda yuk va yo‘lovchi tashishni tashkil etishni avtovtransport korxonalar (ATK) amalga oshiradi va aynan yo‘lovchi tashuvchi avtovtransport korxonalarini ish jarayonlarini samarali tashkil etish, mamlakat iqtisodiyotiga, jamiyat hayotiga katta foyda keltirib davlat rivojanishiga katta hissa qo‘sadi.

O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘rtinchisi yo‘nalishining uchinchi bandida aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta’minlovchi yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya

qilish, aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostantsiyalarni qurish hamda rekonstruktsiya qilish belgilab qo'yilgan [1]. Transport sohasidagi kamchiliklarni bartaraf etish, bu sohani tubdan yangilash, takomillashtirishda, mavjud tuzilmalarni modernizatsiya qilish bilan birga ushbu sohada faoliyat olib boruvchi kadrlarning, xususan ATK dispetcherlari, haydovchilar va texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash (TXK va T) mutaxassislarining malakali, bilimli va kompetentlik layoqatiga ega bo'lishi bilan uzviy bog'liqdir.

***Adabiyotlar tahlili va metodologiya.*** Respublikamiz transport sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini ilg'or xorijiy tajriba va xalqaro standartlar asosida tubdan takomillashtirish, o'quv jarayoniga o'qitishning innovatsion shakl va metodlari hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, tarmoq ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ilmiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida 2020-yil 4-mayda PQ-4703-sonli qarori imzolandi [2]. Unga ko'ra, transport sohasi ehtiyojlaridan kelib chiqib, mehnat bozoridagi raqobatbardosh oliv ma'lumotli mutaxassislar va ilmiy-pedagogik kadrlarni, shuningdek, ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, transport sohasini rivojlantirishning dolzarb masalalari bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion izlanish va tadqiqotlar olib borish, ularning natijalarini, shu jumladan raqamli va boshqa zamonaviy texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish kabi masalalarni tashkil etish choralarini belgilangan.

Avtotransport korxonalari ish samaradorligini oshirishda bilimi, malakali va yuqori kompetensiyaga ega kadrlarni o'qitish, tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yaratish eng asosiy ishlardan hisoblanadi .

Kuchli bilimli, malakali va o'z ishining yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash tizimlarini yaratish bo'yicha ilmiy adabiyotlarda "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari tobora ko'proq qo'llanilmoqda va ushbu yondoshuv asosida mutaxassislarini tayyorlash ularni malakasini oshirish ta'lim tizimidagi eng samarali metodlardan ekanligi ta'kidlanmoqda.

Umunan olganda, kompetensiya, kompetentlik tushunchasi o'ta murakkab, ko'p qismli, barcha fanlar uchun mushtarak bo'lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqin va izohlari tarkibiga ko'ra ma'no va mantiq mundarijasi jihatidan turli-tumandir. Terminning mohiyati "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", "muvaffaqiyatlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik", "uquvlilik", "xossa", "xususiyat", "sifat", "miqdor", "o'lchov" kabi tushunchalar asosida tavsiflanmoqda. Umumiyligini qilib aytganda, "Kompetentlik - aniq bir kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganlik xususiyatidir" [3].

Transport sohasi bo'yicha mutaxassisning kompetentlik layoqati juda muhim hisoblanadi, ayniqsa ushbu soha mutaxassis uchun kasbiy kompetentlik layoqati uning samarali faoliyat natijasining eng asosiy ko'rsatgichi hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni bir qator olimlar xususan, V.M.Karimovaning olib borgan izlanishlari va tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyalari bo'yicha ko'plab samarali izlanishlar olib borgan va bo'lg'usi mutaxassisda kasbiy kompetentlik layoqatini shakllanishi ishlab chiqarish jarayonlarini samaradorligiga ta'sirlari to'g'risida ko'plab mulohazalarni bayon etgan [5].

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Avtotransport korxonalari texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishchilarini tayyorlash, ularni doimiy malakasini oshirib borish va kompetensiyaviy yondoshuv asosida tayyorlash natijasida, transport xizmatlar sifatining oshishiga, avtomobil ekspluatatsiya xususiyatlarining yaxshilanishiga va ATKdagi avtomobillar texnik tayyorgarlik koeffitsientining doimiy yaxshilanishiga erishish mumkin. Kompetensiyaviy yondashuv asosida nafaqat TXK va T mutaxassislarini balki ATKning barcha xodimlarini, boshqaruvga ma'sul rahbar xodimlarni ham tayyorlash va doimiy malakasini oshirib borish zarur, bundan maqsad mutaxassislarga ish joyidagi mehnat funksiyalarini samarali bajarish uchun zarur bo'lgan qobiliyat va ko'nikmalarni o'zlashtirish va maxsus kompetentlik layoqatini shakllantirish hisoblanadi [4].

Kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim - o'rganuvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Zamon talablari asosida ishlab chiqarilayotgan avtomobillar tuzilishi, tarkibiy qismlari, ishslash prinsipi, murakkab tizimlarning qo'llanilishi, kuzov qismiga polimer va kompozit materiallarning qo'llanilish TXK va T mutaxassislar uchun doimiy o'z sohasi bo'yicha doimiy izlanishni, o'z ustida ishslash talablarini qo'yadi va mutaxassisda kompetentlik layoqati shakllanishini talab qiladi[6]. Bugungi kunda mutaxassis kadrlarga kompetensiyaviy yondoshuv asosida ta'lim berish, tayyorlash ta'lim tizimida eng samarali va ishlab chiqarish talablariga javob beradigan yondoshuv hisoblanadi.

**Natijalar.** Avtomobilgarga texnik xizmat ko'rsatish stantsiyalari va avtotransport korxonalarini oliy ta'lim muassasalarida, qayta tayyorlash va malaka oshirish muassasalarida, texnikumlarda va kasb-hunar maktablarida texnik-muhandislarini, ATKning boshqaruv, nozimlar, TXK va T ishchi mutaxassislarini kompetensiyaviy yondoshuv asosida tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ishlab chiqarish jarayoni samaradorligini oshirib ATK rivojlanishiga, uning keljakdagi istiqboliga ijobiy ta'sir etadi. ATKlarda mavjud harakatlanuvchi takibning ya'ni avtomobilarning vaqt o'tishi bilan eskirishi va ishdan chiqishini oldini olishda TXK va T xodimlarini o'z ishini qay darajada bilishi, mavjud muammolarni yecha olishi va ish jarayonini samarali tashkil eta olishi kabi kompetentlik layoqatlariga bog'liq hisoblanadi.

ATKnинг boshqaruv, nozimlik, TXK va T bo'limi ishchi mutaxassislarini kompetensiyaviy yondoshuv asosida tayyorlash quydagi natijalarni beradi:

- o'quv-tayyorlov jarayonining tarkibi va mazmuni izchillik, kontekst, andragogik va modullik tamoyillari asosida tashkil etilishi bilan o'rganuvchida bilim, ko'nikma va malakalarining uyg'un rivojlanishi, bu bilan birga mutaxassisda maxsus kompetentlilikning shakllanishi;

- o'quv-tayyorlov maqsadlari, mazmuni va o'qitish texnologiyasini ishlab chiqishda, bo'lg'usi mutaxassisning ta'lim darajalarini taksonomik modelini yaratish orqaliva mutaxassislarning raqobatbardoshligi parametrlari bilan birlashtirilgan holda, malakaviy dizayndan foydalanishning samarali ekanligi;

- professional ta'lim tizimida avtomobilgarga texnik xizmat ko'rsatish stantsiyalari va avtomobil transporti korxonalariga malakali TXK va T mutaxassislarini xalqaro talablar asosida, mutaxassisligi bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlanishi va natijaviy xususiyatlari sifatida mutaxassisda asosiy kasbiy kompetensiyalarining shakllanganligi.

Avtotransport korxonalarida avtomobilgarga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini nazorat qilish va boshqarish bo'yicha mutaxassisni kasbiy kompetensiyalarga quydagilar kiradi (ATK boshqaruv, nozimlik bo'limi xodimlari):

- avtotransport korxonasini boshqarish, avtoservisning dasturiy va maqsadli usullaridan foydalanish;

- zamonaviy elektron hisoblash texnologiyasidan foydalangan holda avtomobilgarga texnik xizmat ko'rsatish narxlarini, uskunalar amortizatsiyasini aniqlash uchun zarur hisob-kitoblarni amalga oshirish;

- avtotransport korxonasida va avtomobilgarga texnik xizmat ko'rsatishda ishlatalidigan ishlarning jadvallarini, buyurtmalarni, ilovalarini, ko'rsatmalarini, diagrammalarini va boshqa texnik hujjalarni tuzish;

- mehnatni tashkil etish qobiliyati, xodimlarning malakasini oshirish va o'qitish, jamoaviy, kasbiy va ijtimoiy tadbirlarni tashkil etish, avtotransport

korxonalari, avtoservis xodimlari bilan ishlash ko‘nikmalaridan foydalanishga tayyorligi;

- avtotransport sohasida talab va potentsial ehtiyojlarni aniqlash, avtotransport korxonalari, avtoservislar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish bo‘yicha marketing tadqiqotlarini o‘tkazish qobiliyatlariga ega bo‘ladi.

Avtotransport vositalarini TXK va ta’mirlash bo‘yicha mutaxassislarning asosiy kasbiy kompetensiyalarga quydagilar kiradi:

- avtomobil va transport vositalarining ekspluatatsiyasi paytida yuzaga keladigan jarayonlarning fizik mohiyati, ekspluatatsion xususiyatlari, avtomobil tarkibiy qismlari va asosiy agregatlari modifikatsiyasi, ishlash printsiplari, tuzilishi, texnik xususiyatlari haqida bilimlardan professional faoliyatida foydalanishga tayyorligi;

- avtomobilning agregatlari va mexanizmlaridagi ish jarayonlarini tahlil qilish qobiliyati, avtomobil tarkibiy qismlari, mexanizm va tizimlarining har xil holatdagi nosozliklarini aniqlash qobiliyati;

- transport vositalarining tarkibiy qismlari ularning ish holatini kuzatish, transport vositalarining ekologik ko‘rsatgichlarini aniqlash, ekspluatatsiya davomida nosozlik oldini olish usullari va vositalarini qo‘llash uchun zamonaviy qurilmalar va diagnostika tizimlaridan foydalanish qobiliyati;

- texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash barcha turlari bo‘yicha, joriy va kapital ta’mirlash, avtomobilning asosiy tarkibiy qismlari va mexanizmlarini o‘rnatish va demontaj qilish bo‘yicha bilimlardan foydalanish qobiliyati;

- avtotransport vositasining nosoz qismlarini va detallarini almashtirish yoki ta’mirlash bo‘yicha maqbul ko‘p mezonli qarorlarni qabul qilish qobiliyati.

**Muhokama.** Bugungi kun sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish ya’ni har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda.

Avtotransport vositalari doimo ko‘payishi va ulardan ko‘proq foydalanilishi natijasida, ekspluatatsiya xarajatlari oshib bormoqda. Bu xarajatlarning bor-yo‘g‘i 12-15% texnik xizmat va ta’mirlash uchun sarflanadi. Shu bilan birga, yuk tashish tannarxi boshqa mahsulotlar (yonilg‘i va moy mahsulotlari, shinalar, haydovchilarning ish haqi va h.k.) uchun ketadigan xarajatlarning qiymatiga, TXK va ta’mirlash sifatiga hamda muhandis-texnik xizmati (MTX)ning samarali ishlashiga uzviy bog‘liqdir.

**Xulosa** qilib aytganda, yo‘lovchi tashuvchi ATKlarda ish faoliyati samaradoligi birinchi navbatda harakatlanuvchi tarkibning ekspluatatsion xususiyatlari, texnik tayyorgarlik koeffitsienti va nozimlik xizmatining samarali tashkil etilishiga bog‘liq va bu jarayonlarni olib boruvchilarning, amalga oshiruvchilarning kompetentlik layoqati ish sifatini belgilab beradi.

Xususan, malakali, yuqori kompetensiyaga ega TXK va T ustalari, boshqaruv va nozimlik (dispatcherlik) bo‘limi xodimlari ATK ish faoliyatini samarali tashkil etuvchilar hisoblanadi. Ish jarayonidagi samaradorlikni doimiy saqlanishi va oshib borishi avtotransport korxonalarida boshqaruv, nozimlik, TXK va T bo‘limi ishchilarini kompetensiyaviy yondoshuv asosida doimiy ravishda tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini puxta ishlab chiqish va amalga joriy etish zarur.

### **Adabiyotlar ro‘yhati.**

1. 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, Toshkent sh., 2017-yil 7-fevral, PF-4947сон.
2. “Transport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 04.05.2020, PQ-4703-сон.
3. B.Mengliev, G.Ziyodullaeva “Til ta’limiga kompetentsiyaviy yondashuv”//Ma’rifat. – Toshkent, 2014-yil 29-mart, 26 son. – B. 8-9.
4. А.Э.Птицын Моделирование компетентностно-ориентированной подготовки специалистов для автомобильного транспорта. //Сб. “Теория и методика профессионально-педагогического образования”. - Самара: СГППК, 2003.-C.164-169.
5. N.A.Muslimov va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. –Т.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
6. J.Mannonov, S.Imomnazarov, Sh.Abduganiyev, F.Nishonov. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE). DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.234 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 06 2022 “Electronic engine management diagnostic system selfpropelled narrow-gauge power stationand method of experimental researchintroduction”. <https://www.intjecse.net/abstract.php?id=4919>